

Qashqadaryo viloyatida demografik holat

2026- yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilingandan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026- yilning 1-iyul holatiga Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni **3 745,6** ming kishini tashkil etib, 2026- yilning mos davriga nisbatan **2,0** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **41,3** ming nafarni, vafot etganlar **7,9** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **33,4** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **5** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **21** kishini, qayd etilgan nikohlar **9,6** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,7** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

3 745,6 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

41,3 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

7,9 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

5 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

21 *kishi*

Nikohlar soni

9,6 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

1,7 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Qashqadaryo viloyatida doimiy aholi soni 2026- yil 1-iyul holatiga ko'ra **3 745,6** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **71,9** ming kishiga yoki **2,0** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 593,4** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **42,5%**), qishloq joylarda esa **2 152,2** ming kishi (**57,5%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 845,5** ming kishini (**49,3%**), erkaklar esa **1 900,1** ming kishini (**50,7%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 673,7	3 745,6	102,0
Qarshi shahri	303,7	307,9	101,4
Shahrisabz shahri	151,3	153,7	101,6
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	229,2	234,1	102,1
Dehqonobod	164,4	167,7	102,0
Qamashi	303,0	309,5	102,1
Qarshi	282,7	289,5	102,4
Koson	322,8	329,6	102,1
Kitob	290,0	295,2	101,8
Mirishkor	133,4	135,9	101,9
Muborak	96,1	97,7	101,7
Nishon	172,4	175,9	102,0
Kasbi	219,7	223,9	101,9
Ko'kdala	196,9	202,3	102,7
Chiroqchi	277,2	283,1	102,1
Shahrisabz	240,3	243,9	101,5
Yakkabog'	290,6	295,7	101,8

Qashqadaryo viloyatida 2026- yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **131,1** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **2,5** kishiga ortgan (2025- yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **128,6** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **41,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **22,3** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **3,8** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **7,9** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan, **0,6** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **41,3** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **21,5** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,1** %), qiz bolalar soni **19,8** ming kishini (**47,9** %) va shahar joylarida **16,6** ming kishini (**40,2** %), qishloq joylarida **24,7** ming kishini (**59,8** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **7,9** ming kishini, shundan erkaklar **4,4** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,7** %), ayollar **3,5** ming kishini (**44,3** %) va shahar joylarida **3,8** ming kishini (**48,1** %), qishloq joylarida **4,1** ming kishini (**51,9** %) tashkil qildi.


Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **9,6** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan teng.


Nikohdan ajralishlar soni **1,7** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan teng.



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **9,6** ming birlikni, shundan shahar joylarida **4,0** ming birlikni (**41,7 %**), qishloq joylarida **5,6** ming birlikni (**58,3 %**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **1,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,9** ming birlikni (**52,9 %**), qishloq joylarida **0,8** ming birlikni (**47,1 %**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026- yil yanvar-iyun oylarida ko'chib kelganlar jami soni **9 749** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **9 744** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **5** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **14 431** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **14 410** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **21** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Qashqadaryo viloyati	9 749	9 744	5	14 431	14 410	21
Qarshi shahri	2 052	2 052	0	2 801	2 797	4
Shahrisabz shahri	673	673	0	825	817	8
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	317	317	0	638	637	1
Dehqonobod	256	256	0	562	562	0
Qamashi	584	584	0	1 177	1 177	0
Qarshi	1 711	1 711	0	1 237	1 237	0
Koson	485	485	0	747	746	1
Kitob	439	438	1	1 020	1 019	1
Mirishkor	253	253	0	338	337	1
Muborak	313	311	2	473	473	0
Nishon	424	423	1	767	765	2
Kasbi	345	345	0	590	588	2
Ko'kdala	427	426	1	308	308	0
Chiroqchi	388	388	0	940	940	0
Shahrisabz	639	639	0	978	978	0
Yakkabog'	443	443	0	1 030	1 029	1

Jinslar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. Temurov
75 221-15-84 (7071)

Manzil:
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahar, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2 b-uy
